



UDK:811.523

Ilhom ABLAKULOV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: ablakulov.i@gmail.com

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) H.F.Maksudova taqrizi asosida

O'ZBEK TILIDAGI LINGVOKULTUREMALARNING INGLIZ TILIGA TARJIMASI MUAMMOLARI

Аннотация

Ushbu maqolada tilshunos olimlarning ilmiy ishlari yordamida lingvokulturologiya va lingvakulturemalar haqida izoh va tushunchalar keltiriladi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tilidagi lingvakulturologik birliklarning o'zaro o'xshashlik va farqli jihatlari, ularning tarjimadagi ma'nolari misollar orqali yoritiladi.

Kalit so'zlar: Lingvomadaniyatshunoslik, lingvokulturema, lacuna, leksika, konsept.

TRANSLATION PROBLEMS OF LINGUACULTUREMES FROM UZBEK LANGUAGE INTO ENGLISH LANGUAGE

Annotation

In this article some concepts and notions about linguaculturology and linguoculturemes are presented with the help of scientific research works of some scholars. Moreover, the similarities and differences of linguoculturological units of Uzbek and English and their meanings in translation are investigated through examples.

Key words: Linguoculturology, linguocultureme, lacuna, lexicon, concept.

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ЛИНГВАКУЛЬТУРЕМ С УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация

В данной статье некоторые понятия о лингвокультурологии и лингвокультурах представлены с помощью научных исследований некоторых ученых. Кроме того, на примерах исследуются сходство и различия лингвокультурологических единиц узбекского и английского языков, их значения в переводе.

Ключевые слова: Лингвокультурология, лингвокультурема, лакуна, лексика, концепт.

Kirish. Ilm va fanning globalashuvi jarayonida tilshunoslik fani ham o'z o'rni va ahamiyatiga ega bo'ldi. Tilshunoslikda yangi sohalar paydo bo'la boshladi. Olimlar turli nazariy qarashlar va ularning amaliyoti ustida ish olib bordilar. Ushbu jarayonda har bir xalqning madaniyati va urfodatini o'zida mujassam etgan lingvokulturemalarning ham o'rni yanada kuchaydi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti IA.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab "... ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarida ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga" xizmat qilishini ta'kidlab o'tganlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda lingvomadaniyatshunoslik fani yangi sohalaridan biri bo'lishiga qaramasdan ko'plab olimlar tomonidan ish olib borilgan. Bugungi kunda nazariy fanlarning asosiy qismi Rossiya davlati olimlari tomonidan keng o'rganilmoqda. Jumladan, lingvomadaniyatshunoslik fani sohasida dastlabki izlanishlar V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi olimlari Yu.S.Stepanov, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyev, V.Shaklein, V.A.Maslovalar tomonidan dastlabki tadqiqotlar olib borgan. O'zbek tadqiqotchilardan O'.Q.Yusupov, A.E.Mamatov, D.U.Ashurova, N.A.To'xtajoyevlar ham o'z ishlari bilan salmoqli hissa qo'shishgan. Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslikning

yangi sohasi bo'lganligi sababli ushbu sohada o'rganilishi lozim bo'lgan tadqiqotlar ko'plab topiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi zamonaviy lingvomadaniyat tadqiqotlari o'zining asoslari uchun "V.Gumboltdan minnatdor bo'lishi kerak, chunki u xalqning tili, fikrlashi va madaniyati o'rtasida to'g'ri va bog'liqlik borligini ochiq tan olgan. Bu o'zaro bog'liqlik "xalq", "xalq ruhi", "til madaniyati", "dunyovarashi" kabi tushunchalari orqali mavjudligiga iqror bo'ldi". V. Gumbolt xalqning til va madaniyati, til va fikrlashi orasida bog'liqlik borligini ta'kidlaydi.

Tahlillarga ko'ra til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi insoniyat tarixining rivojlanishi haqida dalolat beradi. Til insonning ma'naviy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uni har bir rivojlanish bosqichlarida ma'naviy rivoji yoki tanazzuli haqida ma'lumot beradi. Til insonning doimiy faoliyatini ma'naviy rag'batlantiradi va u insonni boshqaradi.[1] Til inson vujudida qanchalik tomir otgan bo'lishiga qaramasdan u mustaqil tashqi ijtimoiy hayotning moddiy bazasini boshqaradi. Tilga xos xalqning biz tushunolmaydigan faoliyatning boshlanishidir.

Til o'zining ichki tabiatiga ko'ra insonga berilgan ruhiy sovg'adir. Xalq tilining diniy yasallishi va tuzilishi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin. Haqiqatda, aqliy faoliyat va til ularning talablarini qondiruvchi holatlarni keltirib chiqaradi. Til xalq ma'naviyatini kelib chiqishi: "xalq tili bu uning ma'naviyati va ma'naviyat xalqning tilidir, va bu o'xshashsiz bir nimani tasavvur qilishimiz qiyin". Tilning gullashi va rivojlanishida ma'naviyatning o'rni katta: ma'naviyat tilni oziqlantiradi, xalqni dunyovarashini ifodalovchi vosita bo'lib, uni kuchli qiladi.[2]

“Fikrlash nafaqat til bilan oddiy, balki har bir til bilan alohida bog'liqdir. F. Boas shimoliy amerika hindulari tilini o'rganayotib har xil til strukturalarini o'ziga xos dunyoqarashlar bilan bog'lab o'rganadi”. [3]

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchasi lingvokulturema ekanligini e'tirof etgan holda, O.Q.Yusupov “lingvokulturema o'z semantikasida madaniyatning bir bo'lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligidir”, [4] degan fikr bildiradi.

Lingvokulturemalar o'z ifodasida rang-barangdir – ular so'z, so'z birikmasi, matn parchasi bilan, she'r bilan va hatto katta hajmdagi matn bilan berilishi mumkin.

V.V.Vorobyov lingvokulturema birliklarining manbai quyidagicha bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi:

1. Xalq milliy madaniyatining eng ahamiyatli qismi bo'lgan, sivilizatsiyani va madaniyatni bilishning muhim manbai, millat ijtimoiy ongining in'ikosi bo'lgan xalq poetik ijodi;

2. Tarix va ijtimoiy fikr yodgorliklari, shuningdek, maxsus tarixiy, falsafiy, adabiyotshunoslik, lingvistik, estetik va boshqa tadqiqotlar;

3. Millat va shaxsning eng muhim baholari saqlanib qolgan atqli kishilar fan, madaniyat va adabiyot namoyondalarining fikrlari;

4. Badiiy asarlar va publitsistika;

5. Atoqli shaxslar milliy shaxsning modeli sifatida;

6. Barcha narsalarning o'ziga xos xususiyatini yaqqol ajratib ko'rsatuvchi bir millat va uning madaniyatining qiyosiy foni sifatida chet elliklarning fikrlari va mulohazalari. [5]

Lingvomadaniyatshunoslik tadqiqot obyektidan kelib chiqqan holda, uning lingvokulturologik birliklardan tashkil topgan bir qancha predmetlarini ko'rsatish mumkin.

1. Muqobilisiz leksika va lakunalar. Har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir so'z bilan tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar mavjud. Bunday so'zlarga muqobilisiz leksika deyiladi. Muqobilisiz leksika muayyan xalq madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. U ko'pincha mahalliy xalqqa xos pul, masofa uzunlik birliklari, ro'zg'or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik-ichkilik va h.k. tushunchalarni anglatadigan so'zlardan tarkib topadi. Muqobilisiz leksika boshqa tilga o'zlashtirilganda ularga ekzotik leksika (ekzotizm) deyiladi. Ekzotizm va etnografizm o'zga madaniyatning ramzi sanaladi. Jumladan, spiker, kriket, shilling – Angliya; yaylov, qishloq, ariq, dehqon, cho'l – O'rta Osiyo; sakura, geysha, ikebana, sake – yapon madaniyatining belgilarini assotsiatsiyalaydi. O'zbek madaniyatining belgilarini palov, patir, sumalak, ko'rpacha,

belbog' (belida belbog'i bor), do'ppi (do'ppisi osmonda, do'ppi tor) va h.k. so'zlarda ko'rish mumkin.

Muqobilisiz leksikani boshqa tilga tarjima qilib berish qiyin. Shuning uchun uni transliteratsiya yo'li bilan talqin etish maqsadga muvofiq. “Amerika Qo'shma Shtatlari “dollar”ining, ingliz “funt sterling”ining, nemis “marka”siyu hind “rupiya”sining, afg'on “afg'oni”sining transliteratsiya qilinmasdan, o'zbek “so'm”i bilan almashtirib qo'yilishi, AQSh “brendi”si, ingliz “viski”si, nemis “shnapse”sining rus “vodka”si orqali talqin etilishi ingliz boshiga “shlyapa” o'rniga o'zbek “do'ppi”sini, egniga “palto” yoki “plash” o'rniga “to'n” yoki “yaktak” kiygizib qo'yish bilan baravar”. [6]

Bir tildagi so'z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o'rinlarda har doim lakunalaridan foydalaniladi. Lakunalar (lot. lacuna – bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy) – matnda bo'sh qolgan, tushib qolgan joy, “tilning semantik xaritasidagi oq dog'lar”dir.[7] Muqobilisiz leksika singari lakunalar ham tillarning qiyosida seziladi. Masalan, ingliz tilida “yurist, advokat” ma'nosini anglatgan lawyer so'zidan boshqa advokatlik kasbining turli-tumanligini ifodalaydigan attorney “vakil”, barrister “oliy sudlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan advokat”, solicitor “mijozlarga va tashkilotlarga maslahat beruvchi; quyi sudlarda ishtirok etish huquqiga ega”, counsel “yuriskonsult”, counsellor “maslahatchi”, advocate “oily darajadagi advokat”. O'zbek va rus tillarida qayd qilingan ifodalarga faqat bir advokat so'ziga muqobil bo'ladi.

Albert Maltzning “The Happiest Man on Earth” asari o'zbek tiliga tajribali va mohir tarjimon Abduqahhor Abduvohid hoji o'g'li Iminov tomonidan tarjima qilingan. Asar tajribali tarjimon tomonidan tarjima qilingani, asarda so'zlar va so'z birikmalarining o'z o'rnida mohirlik bilan ishlatilganini ko'rishimiz mumkin. [8] Masalan, quyidagi gapning o'zbek millatiga xos tarzda tarjima qilinganligini ko'rish mumkin:

They at least seemed definitely familiar, gray, with a curiously shy but decent look in them.

Hayo andishasi oshkora bo'lib turgan ko'k ko'zlari unga issiq ko'rinib ketdi.

I ain't no corpse. - Men ham tirik jonman-ku!

Why are you limping? - Oqsoqlanayotgan ko'rinasiz?

Well now, listen, tell me the things. - Qani gapiring-chi, ahvollar qalay?

There was a moment's silence. - Oraga bir lahzalik jimlik cho'kdi.

Well tell me about yourself. - Xo'sh, o'zingizning ishlaringiz haqida gapiring-chi.

Forget it. - O'tgan ishgah salovat.

Asardagi lingvokulturemalarning qiyosiy tahlili

№	THE HAPPIEST MAN ON EARTH	KURRANING ENG BAXTIYORI	SO'Z TURKUMLARI BILAN IFODALANISHI (O'ZBEKCHA)
1	felt ready to weep	o'pkasi to'ldi	fe'l
2	waiting for	ko'zi to'rt bo'lib	holat ravishi
3	why of course,	ixtiyor o'zingizda,	holat ravishi
4	you can start	ishga tushaverishingiz mumkin	sodda gap
5	nights of rain	seryomg'ir tunlar	ot
6	that one moment	ilinjida	holat ravishi
7	a sheaf of papers	bir dasta qog'oz	ot
8	glanced at	ko'zi tushdi	fe'l
9	gone badly	biror naf bo'lmagan	sifat
10	an ugly gash down the side of his cheek	otning qashqasidek ko'rinib turardi	sodda gap

Xulosa va takliflar. Kuzatish va tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, til inson ongini shakllantiruvchi asbob yoki quroldir. Biz ona tilini ham milliy madaniyatni ham ularning tug'ilish vaqtini va joyni ham tanlashga qodir emasmiz. Biz o'z ona tilimizning asirimiz chunki barcha

tasavvurlarimizni, lisoniy olam manzarasini, barcha milliy va moddiy boyliklarimizni faqat til orqali ifodalay olamiz. Til inson dilining, qalbining muhandisidir chunki u insonni ifodalaydi.

Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmaning mahsuli bo'lib, u so'nggi o'n yilliklar davomida rivojlanib kelmoqda. XXI asrning boshlariga kelib lingvomadaniyatshunoslik jahon tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylandi.

Lingvomadaniyatshunoslik tilda va diskursda o'z aksini topgan va mustahkamlangan xalq madaniyatini o'rganadi. U birinchi navbatda, muayyan madaniyatning mif, afsona, urf-odat, an'ana, udum, taomil, ramzlarini va h.k.ni tadqiq etadi. Mazkur konseptlar madaniyatga taalluqli bo'lib, ular tilda maishiy va taomil muomalasi shaklida mustahkamlanadi. Lingvomadaniyatshunoslikning obyekti – madaniyat va tilning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'sirini bir butunlikda tadqiq qilishdir.

Lingvokulturema bosqichlararo kompleks birlik sifatida lingvistik va ekstralingvistik mazmunlarning dialektik birligidan iborat. Til lingvokulturemaning tarkibiy qismi sifatida nafaqat uning tilga oid ma'nosi haqida, balki uning "tugal" mazmuni madaniyatning asosi ekanligi haqida xabar beradi.

Millat madaniyatini ifodalovchi so'zlarning tarjimada berilishi tarjimondan juda katta mahorat talab qiladi. Sababi, bir xalq madaniyatida uchraydigan tushuncha boshqa bir xalq madaniyati uchun umuman begona bo'lishi mumkin, shu sababli tarjimon kitobxonda shu xalq madaniyatini to'la tasavvur qilishga imkon yaratishi lozim. Shu sababdan, tarjimon tarjima sa'natidan, uning nazariy va amaliy asoslaridan xabardor bo'lishi lozim. Bundan tashqari tarjimondan tilshunoslikni ham puxta egallash talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. –М., 1984. 48-52 стр.
2. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. –М., 1984. 184-185 стр.
3. Иванова С.В., Чанышева З. З. Лингвокультурология: проблемы, поиски, решения. Монография. –У., 2010. С. 15.
4. Yusupov O'Q. Tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar va ularda ishlatiladigan ayrim istilohlar. Filologiya masalalari. –T., 2011. № 2. B. 9.
5. Воробьев В. В. Лингвокультурология. Теория и методы. –М., 1997. С. 38.
6. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. –T., 2005. B. 93.
7. Степанов Ю.С. Французская стилистика. –М., 1965. С. 120.
8. Iminov A. Oltin sarob. Qissa va hikoyalar. Ingliz tilidan tarjima. –T., 2011.